



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'ZBEKISTON NODAVLAT MATBUOTIDA IXTISOSLASHUV TAMOYILLARI

Turayeva Feruza Tuxtamuradovna

O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston nodavlat matbuotida ixtisoslashuv tamoyillari, ularning shakllanish omillari va zamonaviy ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ixtisoslashgan nashrlarning auditoriya ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati, mavzuviy yo'nalishlari hamda raqamli media sharoitida rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari nodavlat matbuotning axborot makonidagi raqobatbardoshligini oshirishda ixtisoslashuv muhim omil ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *nodavlat matbuot, ixtisoslashuv, ommaviy axborot vositalari, media, auditoriya, ixtisoslashgan nashrlar, jurnalistika, axborot siyosati, raqamli media, media bozori.*

Abstract. *This article analyzes the principles of specialization in the non-state press of Uzbekistan, the factors influencing its development, and its role in the modern media environment. It also examines the importance of specialized publications in meeting audience needs, their thematic directions, and development trends in the context of digital media. The findings indicate that specialization is a key factor in enhancing the competitiveness of the non-state press in the national information space.*

Keywords: *non-state press, specialization, mass media, media, audience, specialized publications, journalism, information policy, digital media, media market.*

Barcha zamonlarda axborot jamiyat harakati va taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan. Sir emaski, aslida o'tmishdagi yurishlarning natijasi, davlatlararo munosabatlarning tabiati, ijtimoiy hayotning oqimi ham o'zaro axborot almashuv orqali hal bo'lgan. Ayniqsa, bugungi globallashgan jamiyatni axborotsiz tasavvur qilish qiyin. Bugun jamiyatlar rivojlangani sari axborot yetkazish musobaqasi kuchayib, uni yetkazuvchi sohaning vazifasi tor doiradan muhim ijtimoiy institut sari kengaydi.

“Jamiyatning shakllanish jarayonida turli xil ijtimoiy institutlar paydo bo'ldi va rivojlandi: siyosiy, iqtisodiy, ta'lim, yuridik, ilmiy va boshqa institutlar shular jumlasidandir. Xususan, ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bir bosqichlarida ijtimoiy muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida ommaviy axborot vositalari alohida ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ldi”, deb yozadi M.B. Shkondin.¹⁰⁸

¹⁰⁸Шкондин М.В. СМК и СМИ как понятия журналистики.//Вестник МГУ. Сер. 10 “Журналистика”. -2002. - № 2. – С. 36.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



OAVning bosma shakli bo‘lgan bugungi zamon bilan hamnafas o‘zbek matbuotida kuzatilayotgan islohotlar jarayoniga nazar tashlansa, ikki tomonlama: shakliy hamda mazmuniy o‘zgarish kuzatiladi. Birinchisi, mustaqillikdan keyingi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan, davlat ta‘minotidan mustaqil bo‘lgan nodavlat matbuotning paydo bo‘lishi. Ikkinchisi, yakka mafkuradan xoli bo‘lgan mutlaq erkin fikrli matbuotning shakllanishi. Bugun o‘z-o‘zini ta‘minlaydigan va sog‘lom raqobatdagi bir qator bosma nashrlar faoliyat olib bormoqda. Jumladan, biz tadqiqot obyekti sifatida o‘rganayotgan “Darakchi”, “7x7”, “Bekajon”, “Sug‘diyona”, “Tasvir”, “Hordiq” kabi gazetalar ana shular jumlasidandir. Bugun bu kabi nashrlar mazmunan ham yakka mafkura tobeligidan chinakam ma‘nodagi mustaqil matbuot sari bo‘lgan yo‘lni dadil odimlar bilan bosib o‘tayotganini ko‘rish mumkin.

Mulkchilik shaklining o‘zgarishi jamiyatning ham, odamlar dunyoqarashining ham o‘zgarishiga sezilarli ta‘sir etdi. Eng muhimi, mazkur jarayon davom etmoqda, ma‘naviy-intellektual evolyutsiya davomiyligi har sohada yuz bermoqda. Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, barcha islohot jarayonlarining yutuqlari va muvaffaqiyatida ommaviy axborot vositalarining, xususan, matbuotning xizmati beqiyos. Shu bilan birga, tan olish kerakki, jamiyatda ko‘zga tashlanayotgan – shakllanish bilan bog‘liq ayrim nuqsonlarda ommaviy axborot vositalarining ham ta‘siri yo‘q emas. Bu – taraqqiyot qonuniyati va bu kabi kamchiliklar rivojlanish yo‘liga qadam qo‘yayotgan har qanday jamiyatda kuzatiladi.

Ma‘lumki, bozor munosabatlariga o‘tish shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida o‘zgarishlarga olib keladi. Keng omma orasida tevarak-atrofdagi yuz berayotgan voqelikni to‘g‘ri anglash, voqea-hodisalarni to‘g‘ri va xolis baholash, shaxsiy va milliy manfaatlar muvozanatini to‘g‘ri talqin etish osonlik bilan kechadigan jarayon emasligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi.

Ikkinchi tomondan, O‘zbekiston mustaqilligi jahon miqyosida axborot globallashuvi ayni avj olgan paytlarga to‘g‘ri keldi. Ya‘ni, ichki va tashqi omil tushunchasi o‘zgardi, axborot oqimlari uchun an‘anaviy chegaralar to‘siq bo‘lolmay qoldi, odamlarning axborotga bo‘lgan iste‘molchilik siyosati mutlaqo o‘zgacha tus oldi. Bunday paytda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘llarini tezlashtirish, shu orqali axborotlashgan jamiyat poydevorini mustahkamlash yagona oqilona chora ekanligi ham hayot haqiqatiga aylandi.

Jamiyat demokratiyasi bilan matbuot demokratiyasi yaxlit bir butun jarayondir, zero, uning bittasida demokratik tamoyillar o‘rnatilmasdan turib ikkinchisida erkinlashgan tizimni qaror toptirish mumkin emas. Gap shundaki, misol tariqasida aytilsa, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqaroning jamiyatda kechayotgan jarayonlardagi ongli ishtirokini ta‘minlashning o‘zi boshqa qator ma‘naviy-siyosiy yuksalishlarni taqozo etadi. Xususan, birinchi navbatda, aholining xabardorlik darajasi yuqori bo‘lishi, ikkinchidan, hokimiyat tuzilmalarining quyidan yuqoriga qadar barcha bo‘g‘inlarida oshkoralikning o‘rnatilishi, uchinchidan, manfaatparastlikning turli ko‘rinishlarini o‘zida mujassam etgan boshqa illatlardan tezroq qutulish uchun keng jamoat nazorati o‘rnatilishi hamisha muhim va dolzarb muammo bo‘lib qolaveradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng matbuotda bevosita erkin ruhdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularga keng o‘rin berila boshladi. Chunki, mustaqillik bois, jamiyat hayotining barcha sohalari singari ommaviy axborot vositalariga ham yangicha munosabat yuzuga keldi, matbuot va so‘z erkinligi bebahone‘matga aylandi.

Gazeta sahifalarida mamlakatning tarixi, boy madaniyati, o‘zbek xalqining o‘ziga xos urf-odatlarini, an‘analari, milliy qahramonlari yoritila boshlandi. Bu esa jamiyatda milliy o‘zlikni anglash, milliy manfaatlar va uning rivoji sari keng yo‘l ochilganidan dalolat beradi. Umuman olganda, mustaqillik erkin fikrlashga, har kimning o‘z fikrini oshkora bayon qilishiga, erkin fikrlilikning barqarorligini ta’minlashda yangidan-yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Bu esa, bugungi kunda vaqtli matbuot turlari va sonlarining ko‘payib borayotganida o‘z ifodasini topmoqda.

Mamlakatda OAV huquqiy bazasining mustahkamlanishi va takomillashtirilishida yangi tahrirdagi Konstitutsiya ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, uning 81-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchligi uchun javobgardir” deyilgan.

82-moddasida “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”¹⁰⁹ deb belgilab qo‘yilgani ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi.

Shu o‘rinda an‘anaviy nashrlar bilan birga internet nashrlari ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga yetgani va o‘quvchilar ommasini tobora ko‘proq o‘ziga jalb etayotganini milliy jurnalistikamiz hayotidagi ijobiy yangilanishlar sifatida qayd etish lozim.

Yangi O‘zbekiston sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 8-fevralda imzolagan “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ta’kidlaganidek: “Fuqarolarni huquqiy xabardor qilish, asosan, an‘anaviy ommaviy axborot vositalari orqali qog‘oz ko‘rinishida amalga oshirilmoqda, bu esa huquqiy axborotning to‘liqligi va erkin foydalanilishiga, uning o‘z vaqtida tarqatilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda aholining ijtimoiy faol qatlamlari, shu jumladan, tadbirkorlar va yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyoj va so‘rovlari inobatga olinmayapti”¹¹⁰. Natijada yuqoridagi ijtimoiy qatlamlarga ma’lumot va axborotlarning yetib borishida ixtisoslashgan nashrlarga ehtiyoj seziladi. Bundan ko‘rinib

¹⁰⁹O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.//<https://lex.uz/docs/6445145> <https://lex.uz/docs/6445145>. Murojaat qilingan sana: 01.07.2024

¹¹⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 9-fevral №29 (6723).



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



turganidek, axborotning elektronlashishi hamda matbuotning ixtisoslashuvini zamonning o'zi talab etmoqda. Shuningdek, Qarorda:

– davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilgan holda, jamiyatda huquqiy targ'ibotni tashkil etish;

– davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotdan keng ko'lamda foydalanishini ta'minlash, ushbu sohada fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish faoliyatini muvofiqlashtirish ko'zda tutiladi¹¹¹. Qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini nashrlar auditoriyasidan kelib chiqib, o'z yo'nalishida yetkazish har bir ixtisoslashgan nashrning vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston – 2030 strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan 4-ustuvor yo'nalishi 83-maqsadi: “Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha xabga aylantirish” deb nomlanib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Ommaviy axborot vositalarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirib, ularning professional faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

- Ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning kafolatli ta'minlash¹¹² shular jumlasiga kiradi.

Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashayotgan millatlarning 7 ta tilida va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, sport kabi 20 dan ortiq ixtisosliklarda faoliyat olib boradi.

Hozirgi kunda o'zbek matbuotidagi kunlik gazetalar rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi o'z mavqeyini ko'tarishga intilib, sahifalarida tahliliy va tanqidiy ruhdagi materiallarga ko'proq o'rin ajratmoqda. Chunki demokratik jamiyatda muammo va kamchiliklarni omma bilan birgalikda hal etish asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Matbuotning ochiqligi ham ana shu prinsipda aniq ko'rinadi. Xususan, ijtimoiy-siyosiy nashrlar orasida eng yuqori tirajni tashkil etayotgan. “Xalq so'zi” (116165 nusxa)¹¹³, “Yangi O'zbekiston” (42368 nusxa)¹¹⁴, “Правда востока” (24825 nusxa)¹¹⁵ “O'zbekiston ovozi” (14582 nusxa)¹¹⁶ kabi gazetalar ko'p nusxada axborot etkazib kelmoqda. Ma'lumki, gazetalar mavqeyi uning tiraji bilan emas, aksincha, o'zi belgilab olgan yo'nalishida ayditoriyaning saqlab qola olishi bilan belgilanadi. Yuqorida sanab o'tilayotgan nashrlarning bardavomligiga sabab ham ana shunda,

¹¹¹O'sha manba.

¹¹²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023-yil/<https://lex.uz/ru/docs/6600413>. Murojaat sanasi: 01.07.2024.

¹¹³Xalq so'zi, 2017-yil 24-may 102 (6796)-soni.

¹¹⁴“Yangi O'zbekiston” gazetasining 2024-yil 25-iyul kungi 148 (1209)-soni.

¹¹⁵Правда Востока, 2017 йил 24 май №100 (28588).

¹¹⁶O'zbekiston ovozi, 2017-yil 23-may 62 (32277.)-soni.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bizningcha. Masalan, “Xalq so‘zi” – Hukumatning rasmiy nashri bo‘lib, huquqiy sohadagi muhim yangiliklar, farmonlar, qarorlar va qonunlar, “Yangi O‘zbekiston” – Huquq va qonunchilik sohasidagi yangiliklarni keng yoritadi, shuningdek, huquqiy islohotlarga bag‘ishlangan tahliliy maqolalar e‘lon qiladi.

Shu o‘rinda matbuotning ixtisoslashuviga nazar tashlasak, O‘zbekistonda huquq sohasiga oid bir qator gazeta va jurnallar mavjud bo‘lib, ular mamlakatdagi huquqiy islohotlar, qonunchilik yangiliklari va huquqiy ta‘lim masalalarini yoritadi. Xususan, “Norma” (gazeta shaklida ham chiqadi) – Yuridik sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Qonunchilik hujjatlari, huquqiy sharhlar, amaliyotlar beriladi. “Adliya” – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri. Yuridik bilimlar, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va adliya tizimi faoliyati yoritiladi. “Huquq va burch” – keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan maqolalar chop etiladi. “Yurist” – yuristlar, advokatlar va huquqshunoslar uchun mo‘ljallangan jurnal. Amaliyotdan olingan misollar, huquqiy maslahatlar va tahlillar beriladi. “Huquqshunos” – asosiy mavzusi huquqiy tahlil, qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy ta‘lim masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, tibbiyotga oid nashrlardan “Tibbiyotnoma”, “Salomatlik” gazetalari va “Zamonaviy tibbiyot” nashrlar ilmiy, amaliy va ommaviy yo‘nalishlarni qamrab olib, tibbiyot sohasi bo‘yicha keng jamoatchilikni ma‘lumot bilan ta‘minlaydi. Ular sog‘liqni saqlashda bilim va madaniyatni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, o‘zbek matbuotida bugungi kunda rivojlanib borayotgan yo‘nalish sport jurnalistikasidir. Sportga oid “Inter futbol”, “Sport” gazetalari ixtisoslashgan nashrlar sirasiga kiradi.

Mazkur nashrlar bilan raqobatga kirishayotgan “Darakchi”, “Bekajon”, “Tasvir”, “Horqiq”, “Sug‘diyona” kabi nodavlat gazetalari ham ko‘p nusxada chop etilishi bilan bugungi matbuotda o‘z o‘rnini topib ulgurgan. Eng quvonarlisi, mazkur yo‘nalishda axborot yetkazayotgan matbuot nashrlari orasida nodavlat gazetalar salmog‘i ortganida.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan bo‘lmish ommaviy axborot vositalarini ham shakliy, ham mazmunan erkinlashtirishga qaratilgan huquqiy mexanizm ishlab chiqildi;

- sohada olib borilgan islohotlar natijasida ommaviy axborot vositalari tizimida mulkiy munosabatlar erkinlashtirildi;

- respublikada tipologik jihatdan rang-barang ommaviy axborot vositalari vujudga keldi, ayniqsa, nodavlat bosma nashrlar ta‘sis etish yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda nodavlat matbuot nashrlaridagi xilma-xillik, rivojlanish tendensiyalari yangi formatga o‘tish bilan ham ahamiyat kasb etmoqda. Bugun o‘zbek bosma matbuoti deyarli raqamlashgan deyish mumkin. Chunki qog‘oz formatidagi nashrlarning Internet tarmog‘ida o‘z veb-sahifalari, ilovalari ham mavjud. Elektron formatning bir qator afzalliklari borligini o‘quvchilarning o‘zi isbotlamoqda. Birinchidan, bunday format iste‘molchi, ya‘ni axborot oluvchi uchun qulay. Chunki zamonaviy mobil telefoniga ega istagan foydalanuvchi istagan sharoit, istagan vaqt, istagan makonda axborotga ega bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, tezkor. Qaysidir bosma nashrda berilgan materialni gazetani sotib





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



olmasdan ham o'qish mumkin. Buning uchun nashr nomini ilovadan qidirilsa yetarli. Uchinchidan, nashrni yo'lga qo'ygan mulkdor uchun ham, iste'molchi uchun ham bozor munosabatlari zamonida iqtisodiy jihatdan tejamkor.

O'z navbatida, qog'oz formatidagi bosma nashrning ham o'quvchida uyg'otadigan hissiyotlarini inkor etib bo'lmaydi. Birinchidan, sahifalar varaqlanganda gazetaning o'ziga xos qog'oz qo'l terisi orqali beradigan tashqi ta'sirni telefon ekрани bera olmaydi. Ikkinchidan, har qanday mobil telefoni bilan gazetaning qog'oz bichimi o'rtasida yetarlicha farq bor. O'quvchi uchun chegara – gazetaning har doimgi bichimi, masalan, A 3, A 4 va hokazo. Bir vaqtning o'zida harflar hajmini (bu matbaa tilida kegl deyiladi) to'liq ko'rish imkoni qog'oz formatida ustun. Uchinchidan, hozircha qog'oz formatdagi har qanday ma'lumot ilmiy tadqiqotlarda inkorsiz qabul qilinadigan manba bo'lib turibdi.

Yuqoridagi fikr-mulohaza va tahlillardan kelib chiqib xulosalash mumkinki, OAV, xususan, o'zbek matbuoti mustaqillik tufayli tubdan o'zgardi: barcha sohada bo'lgani kabi hozirgi matbuot davlatga bog'liq iqtisodiy qaramlikdan xalos bo'lmoqda, buning isboti bir qator nodavlat nashrlarining ko'payganida ko'rinadi. Bugun yangi mulk shaklida o'z-o'zini ta'minlayotgan nashrlar bozorda ham, axborot olamida ham rivojlanmoqda. Qog'ozsiz gazeta misolida o'zbek matbuoti ikkinchi bir shakliy o'zgarishga ham yuz burdi. Mazmunan o'zgarish va rivojlanish esa, mamlakatning bosh qomusida belgilab qo'yilgan huquqiy asos bilan yuzaga chiqdi: axborot ko'paydi, uni olish, tarqatish, so'z erkinligiga yo'l ochildi. Bularning barchasi bugungi o'zbek matbuotinig qiyofasini shakllantirmoqda. O'zbek OAVning mustaqil institut o'laroq mavqeyini oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шкондин М.В. СМК и СМИ как понятия журналистики.//Вестник МГУ. Сер. 10 “Журналистика”. -2002. - № 2. – С. 36.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.//<https://lex.uz/docs/6445145>
<https://lex.uz/docs/6445145>. Murojaat qilingan sana: 01.07.2024
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // “Xalq so'zi” gazetasi, 2017-yil 9-fevral №29 (6723).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023-yil//<https://lex.uz/ru/docs/6600413>. Murojaat sanasi: 01.07.2024.
5. Xalq so'zi, 2017-yil 24-may 102 (6796)-soni.
6. “Yangi O'zbekiston” gazetasining 2024-yil 25-iyul kungi 148 (1209)-soni.
7. Правда Востока, 2017 йил 24 май №100 (28588).
8. O'zbekiston ovozi, 2017-yil 23-may 62 (32277.)-soni.